Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlarining o'quvchilarning kognitiv va nokognitiv rivojlanishiga ta'sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni qo'llashga oid xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar tizimli hamda mazmuniy tahlil asosida o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, mazkur strategiyalar o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil o'rganish, hamkorlikda ishlash, kommunikativlik va tanqidiy fikrlash kabi tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, o'quvchilarning motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ta'lim jarayonidan qoniqish darajasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. O'quvchilar faoliyatida esa ta'lim jarayonini moslashtirish tashkil etish hamda rivojlantiruvchi baholashdan foydalanish imkoniyatlarining kengaygani aniqlangan. Maqola natijalari boshlang'ich ta'lim amaliyotida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni samarali joriy etish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, tayanch kompetensiyalar, shaxsga yo'naltirilgan pedagogika, o'quvchi faolligi, rivojlantiruvchi baholash, motivatsiya, ta'lim samaradorligi.

Abstract: This article examines the effectiveness of learner-centered pedagogical strategies in developing core competencies among primary school students. The main objective of the study is to identify the impact of learner-centered educational approaches on students' cognitive and non-cognitive development. In the course of the research, international and national scholarly sources related to learner-centered pedagogy were analyzed using systematic and content analysis methods. The findings indicate that learner-centered pedagogical strategies play a significant role in enhancing students' active engagement in the learning process and in fostering core competencies such as independent learning, collaboration, communication, and critical thinking. In addition, positive changes were observed in students' motivation, self-confidence, and overall satisfaction with the learning process. The analysis also revealed that teachers benefit from increased flexibility in organizing instruction and expanded use of formative assessment practices. The results of the study highlight the pedagogical potential of learner-centered strategies in primary education and provide a scientific basis for their effective implementation in educational practice.

Key words: primary education, core competencies, learner-centered pedagogy, student engagement, formative assessment, motivation, educational effectiveness.

Аннотация: В данной статье анализируется эффективность личностно-ориентированных педагогических стратегий в развитии ключевых компетенций учащихся начальных классов. Цель исследования заключается в выявлении влияния личностно-ориентированного обучения на когнитивное и некогнитивное развитие обучающихся. В ходе исследования были проанализированы международные и отечественные научные источники с использованием методов системного и содержательного анализа. Результаты исследования показывают, что личностно-ориентированные педагогические стратегии способствуют повышению учебной активности учащихся и развитию таких ключевых компетенций, как самостоятельность в обучении, сотрудничество, коммуникативные навыки и критическое мышление. Кроме того, выявлены положительные изменения в мотивации учащихся, уровне их уверенности в себе и удовлетворенности учебным процессом. В профессиональной деятельности учителей отмечается расширение возможностей гибкой организации обучения и активного применения формирующего оценивания. Полученные результаты подтверждают значимость личностно-ориентированного подхода в начальном образовании и могут быть использованы для совершенствования педагогической практики.

Ключевые слова: начальное образование, ключевые компетенции, личностно-ориентированное обучение, учебная активность, формирующее оценивание, мотивация, эффективность обучения.

KIRISH

So'nggi yillarda ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida o'quvchilarning nafaqat fan asoslarini egallashi, balki ularning tayanch kompetensiyalarini shakllantirish ham ustuvor vazifa sifatida e'tirof etilmoqda ^[7]. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil o'rganish, muloqotga kirishish, hamkorlikda ishlash va mas'uliyatni his etish kabi muhim kompetensiyalarning poydevori yaratiladigan muhim davr hisoblanadi. Shu bois ta'lim jarayonini o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan holda tashkil etish masalasi pedagogika nazariyasi va amaliyotida alohida dolzarblik kasb etmoqda ^[19].

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv an'anaviy, o'qituvchi markazli ta'limdan farqli ravishda, o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida qaraydi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini inobatga olgan holda ularning bilish faolligini oshirishni, mustaqil fikrlashini rivojlantirishni hamda ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlashni nazarda tutadi. Natijada o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yuzaga keladi ^[3].

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarning joriy etilishi, avvalo, o'quvchilarning bilimlarni chuqur va ongli o'zlashtirishiga xizmat qiladi ^[25]. Konstruktivistik ta'lim nazariyalariga asoslangan ushbu yondashuvga ko'ra, bilim tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchi tomonidan faol o'rganish, muhokama va tajriba jarayonida shakllantiriladi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilishga bo'lgan qiziqishning ortishiga, o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarining rivojlanishiga hamda ijtimoiy kompetensiyalarning mustahkamlanishiga olib keladi ^[12].

Biroq shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarning ta'lim jarayoniga joriy etilishi ularning real samaradorligini chuqur ilmiy tahlil qilishni talab etadi. Amaliyotda mazkur yondashuv o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishga qay darajada ta'sir ko'rsatayotgani, qaysi pedagogik strategiyalar eng samarali ekanligi hamda ularning boshlang'ich ta'lim sharoitida qo'llanish xususiyatlari yetarlicha o'rganilmagan ^[16] (1-jadval).

1-jadval: **Shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning asosiy jihatlari**

№	Shaxsga yo'naltirilgan pedagogika jihatlari	Boshlang'ich ta'limdagi mazmuniy tavsifi
1	Faol ishtirok	O'quvchilar ta'lim jarayonida faol subyekt sifatida qatnashadi; amaliy mashg'ulotlar, muhokama va ijodiy topshiriqlar orqali bilimlarni o'zlashtiradi.
2	O'quvchi ehtiyojlariga moslashuvchanlik	Ta'lim jarayoni o'quvchilarning avvalgi bilimlari, qiziqishlari va individual imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etiladi.
3	Mustaqillik va mas'uliyat	O'quvchilar o'z o'rganish jarayoni uchun javobgarlikni his etadi; o'z-o'zini boshqarish va o'rganishni o'rganish kompetensiyalari shakllanadi.
4	Hayotiy va tayanch kompetensiyalar	Ta'lim mazmuni o'quvchilarning real hayoti bilan bog'lanadi; tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammo yechish va kommunikativ ko'nikmalar rivojlanadi.
5	Hamkorlik va qaror qabul qilish	O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlikka asoslangan muloqot yo'lga qo'yiladi; o'quvchilarning fikri va tashabbuslari qadrlanadi.
6	Rivojlantiruvchi baholash	Baholash jarayoni uzluksiz va rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lib, o'zaro baholash va o'zini baholash orqali kompetensiyalar mustahkamlanadi.

Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarning samaradorligini aniqlash va ilmiy asoslashdan iborat ^[9]. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim amaliyotini takomillashtirish, o'quvchilar kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni yanada samarali tashkil etish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lishi kutiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi xalqaro va milliy pedagogik tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylangan ^[21]. Ushbu jarayonda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirishga xizmat qiluvchi muhim yondashuv sifatida e'tirof etilmoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogika tushunchasi va uning nazariy asoslari bir qator xorijiy olimlar tomonidan keng yoritilgan. Dewey ta'limni o'quvchining shaxsiy tajribasi bilan bog'lash zarurligini ta'kidlab, faol o'rganishga asoslangan yondashuvlarni ilgari surgan. Piaget va Vygotsky konstruktivistik nazariyalar orqali bilimning o'quvchi faoliyati jarayonida shakllanishini asoslab bergan. Ushbu nazariy qarashlar keyinchalik shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning metodologik poydevorini tashkil etgan.

Tadqiqotlarda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarning mazmuni va asosiy jihatlari batafsil tahlil qilingan. Bremner shaxsga yo'naltirilgan pedagogikani faol ishtirok, individual ehtiyojlarga moslashuvchanlik,



o'quvchilarning mustaqilligi, hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirish, qaror qabul qilishda vakolatlarni bo'lishish hamda rivojlantiruvchi baholash kabi asosiy komponentlar orqali tavsiflaydi. Muallifning tizimli tahlillari ushbu yondashuvning turli ta'lim kontekstlarida keng talqin qilinishini ko'rsatadi.

Tayanch kompetensiyalar masalasi xalqaro miqyosda OECD va UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan konseptual hujjatlarda o'z aksini topgan. OECD tomonidan ishlab chiqilgan DeSeCo loyihasida kompetensiyalar shaxsning ijtimoiy, kognitiv va amaliy faoliyatda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta'minlovchi integrativ qobiliyatlar sifatida talqin etiladi. UNESCO esa tayanch kompetensiyalarni o'quvchilarning butun umr davomida o'rganishga tayyorligi va moslashuvchanligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida baholaydi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni qo'llash masalasi ham ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Sahlberg va Oldroyd o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kabi kompetensiyalarni rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ustun jihatlarini ko'rsatib beradi. Lattimer va Kelly boshlang'ich ta'limda hamkorlikka asoslangan ta'lim va loyiha faoliyati o'quvchilarning mustaqilligi hamda ijtimoiy faolligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

O'qituvchilarning shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni qabul qilishi va qo'llashi bilan bog'liq masalalar ham adabiyotlarda muhim o'rin tutadi. Baturo va Atweh tadqiqotlarida o'qituvchilarning pedagogik qarashlari hamda kasbiy e'tiqodlari shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etish jarayonida sezilarli darajada o'zgarishi qayd etilgan. Shuningdek, Cianca o'qituvchilarning rivojlantiruvchi baholashdan foydalanishi o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va refleksiya ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarning samaradorligiga oid tadqiqotlar natijalari turlicha bo'lsa-da, aksariyat manbalarda ularning nokognitiv natijalarga ta'siri yanada barqaror ekanligi ko'rsatilgan. Cheng va Ding, shuningdek, Koksall va Berberoglu tadqiqotlarida o'quvchilarning motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi va o'qishga bo'lgan munosabatida ijobiy o'zgarishlar aniqlangan. Biroq ayrim tadqiqotlarda akademik natijalardagi o'zgarishlar cheklanganligi yoki kontekstual omillarga bog'liqligi qayd etilgan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda tizimli va mazmuniy tahlilga asoslangan metodologik yondashuv qo'llanildi^[4]. Tadqiqot metodologiyasi shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning nazariy asoslari, uning ta'lim amaliyotidagi ifodalanish shakllari hamda o'quvchilarning kompetensiyaviy rivojlanishiga ta'sirini kompleks o'rganishga yo'naltirildi (2-jadval).

2-jadval: Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni tahlil qilish mezonlari


Shaxsga yo'naltirilgan jihat	Tahlil mazmuni	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalariga ta'siri
Faol ishtirok	O'quvchilarni ta'lim jarayoniga faol jalb etishga qaratilgan pedagogik faoliyat shakllari, jumladan amaliy topshiriqlar, muhokamalar va ijodiy faoliyat tahlil qilindi.	Bilishga qiziqish, tanqidiy fikrlash va muammolarni mustaqil hal qilish kompetensiyalari rivojlanadi.
Individual ehtiyojlarga moslashuvchanlik	Ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi va qiziqishlarini hisobga olish mexanizmlari o'rganildi.	O'z-o'zini rivojlantirish, o'rganishni o'rganish va shaxsiy mas'uliyat kompetensiyalari shakllanadi.
Mustaqillik va mas'uliyat	O'quvchilarning o'z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash imkoniyatlari tahlil qilindi.	Mustaqil qaror qabul qilish va o'z ta'lim faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashish kompetensiyasi kuchayadi.
Hayotiy va tayanch kompetensiyalar	Ta'lim mazmunining real hayot bilan bog'liqligi va fanlararo yondashuv asosida tashkil etilishi baholandi.	Kommunikativlik, ijodkorlik, hamkorlik va ijtimoiy moslashuv kompetensiyalari rivojlanadi.
Hamkorlikka asoslangan ta'lim	O'qituvchi va o'quvchi, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro hamkorlikda ishlash jarayonlari tahlil qilindi.	Jamoadi ishlash, muloqot va ijtimoiy faoliyat kompetensiyalari mustahkamlanadi.
Rivojlantiruvchi baholash	Baholashning uzluksizligi, o'zini va o'zaro baholash mexanizmlarining qo'llanishi tahlil qilindi.	Refleksiya, o'z-o'zini baholash va o'rganish jarayonini takomillashtirish kompetensiyalari rivojlanadi.

Tadqiqot jarayonida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni yorituvchi xalqaro va mahalliy ilmiy adabiyotlar tanlab olinib, ularning mazmuni chuqur tahlil qilindi^[14]. Manbalarni tanlashda ta'limning boshlang'ich bosqichiga yo'naltirilganlik, pedagogik yondashuvlarning o'quvchi shaxsiga qaratilganligi, shuningdek, o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish bilan bog'liq empirik yoki nazariy xulosalarning mavjudligi



asosiy mezon sifatida belgilandi. Tanlangan adabiyotlar shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning turli talqinlari va amaliy qo'llanilish tajribalarini qamrab olgan holda umumlashtirildi [6].

Metodologik tahlil jarayonida shaxsga yo'naltirilgan pedagogikaning asosiy jihatlari konseptual mezonlar asosida ko'rib chiqildi. Jumladan, o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki, individual ehtiyoj va imkoniyatlarni inobatga olish, mustaqil o'rganish va mas'uliyatni shakllantirish, hayotiy va tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish, hamkorlikka asoslangan muloqot va qaror qabul qilish jarayonlari hamda rivojlantiruvchi baholashning o'zni mazmunini tahlil qilindi. Ushbu jihatlarni bo'yicha turli tadqiqotlarda keltirilgan ilmiy dalillar taqqoslanib, ularning boshlang'ich sinf o'quvchilari rivojiga ta'siri baholandi (1-rasm).



1-rasm: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni tadqiq etish blok-sxemasi

Olingan ma'lumotlar umumlashtirish va taqqoshlama tahlil usullari yordamida qayta ishlanib, shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarning tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishdagi imkoniyatlari va cheklavlari aniqlandi [18]. Tadqiqot davomida mavjud ilmiy qarashlar o'rtasidagi o'xshash va farqli jihatlarni aniqlanib, pedagogik strategiyalarning samaradorligi kontekstual omillar bilan bog'liq holda talqin qilindi. Bu esa boshlang'ich ta'lim sharoitida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarni qo'llashning metodik asoslarini yanada aniqlashtirish imkonini berdi [1].

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining izchilligi, ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi [23]. Olingan xulosalar boshlang'ich sinf o'quvchilarida tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni takomillashtirish, shaxsga yo'naltirilgan strategiyalarni samarali joriy etish va ularning ta'lim amaliyotidagi natijadorligini oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [10].

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni qo'llash natijasida yuzaga kelgan pedagogik samaradorlik ko'rsatkichlari tizimli tahlil asosida aniqlandi [5]. Tahlilga jalb etilgan manbalar mazmuni o'quvchilarning umumiy o'quv tajribasi, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatidagi o'zgarishlar, o'quvchilarning akademik rivojlanishi hamda nokognitiv natijalar bo'yicha guruhlashtirildi (3-jadval).


3-jadval: Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni qo'llash natijalarining umumlashtirilgan ko'rsatkichlari

Natija yo'nalishlari	Ko'rsatkichlar mazmuni	Manbalar soni
Ijobiy natijalar (umumiy)	Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni qo'llash natijasida aniqlangan barcha ijobiy holatlar majmui	57
O'quvchilarning umumiy ijobiy tajribasi	O'quvchilarning darsga qiziqishi, faol ishtiroki va ta'limdan qoniqishi ortishi	23



O'qituvchilarning umumiy ijobiy tajribasi	O'qituvchilarning kasbiy qoniqishi va pedagogik faoliyat samaradorligi oshishi	28
O'quvchilarning akademik rivojlanishi (obyektiv)	Test, baholash va o'zlashtirish ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar	9
O'quvchilarning subyektiv rivojlanishi	O'qituvchi va o'quvchi qarashlariga asoslangan rivojlanish bahosi	26
O'qituvchilar qarashlari	O'qituvchilarning o'quvchilar rivojiga oid baholari	23
O'quvchilar qarashlari	O'quvchilarning o'z o'rganish jarayoniga bergan baholari	11
Nokognitiv ijobiy natijalar	Motivatsiya, o'ziga ishonch va psixo-emotsional rivojlanish	23
Motivatsiya va qiziqish	O'qishga bo'lgan ichki rag'bat va fanlarga qiziqishning oshishi	13
O'ziga ishonch va o'zini baholash	O'quvchilarning o'z kuchiga bo'lgan ishonchi va faolligi	13
Munosabatlardagi ijobiy o'zgarishlar	O'qituvchi–o'quvchi va o'quvchi–o'quvchi munosabatlarining yaxshilanishi	16
O'qituvchi–o'quvchi munosabatlari	Hamkorlik va ishonchga asoslangan muloqot kuchayishi	16
O'quvchi–o'quvchi munosabatlari	Jamoadi ishlash va o'zaro yordam ko'nikmalarining rivojlanishi	13
Cheklangan yoki salbiy natijalar (umumiy)	Shaxsga yo'naltirilgan strategiyalar samarasi cheklangan yoki salbiy bo'lgan holatlar	21
O'quvchilarning umumiy salbiy tajribasi	Moslashuv qiyinchiliklari va dars jarayonidan qoniqmaslik	7
Akademik rivojlanishdagi o'zgarishlar yo'qligi	O'zlashtirish ko'rsatkichlarida sezilarli o'zgarishlar aniqlanmagan holatlar	0
Subyektiv rivojlanish yetishmasligi	O'qituvchi yoki o'quvchi qarashlarida ijobiy o'zgarish qayd etilmagan	9
Nokognitiv salbiy holatlar	Motivatsiya pasayishi yoki psixo-emotsional qiyinchiliklar	3
Munosabatlardagi cheklangan o'zgarishlar	O'zaro munosabatlarda sezilarli ijobiy siljish kuzatilmagan	4

Natijalar shuni ko'rsatdiki, tahlil qilingan manbalarning katta qismida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ijobiy tajribalarini kuchaytirgan^[20]. O'quvchilarning faol ishtiroki, mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishi va o'rganishdan qoniqish darajasi sezilarli darajada oshgani qayd etilgan. Manbalarning aksariyatida o'quvchilarning dars jarayonida o'zini faol subyekt sifatida his qilishi, savol berish va fikr bildirish faolligi ortgani ta'kidlangan^[8]. Shu bilan birga, ayrim manbalarda kam sonli o'quvchilarda moslashuv jarayoni bilan bog'liq qiyinchiliklar kuzatilgani qayd etilgan bo'lib, bu holatlar umumiy natijalarga nisbatan cheklangan xarakterga ega (2-rasm).



2-rasm: Boshlang'ich ta'limda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar bo'yicha tadqiqotlarning O'zbekiston hududlari kesimidagi taqsimoti



Yuqoridagi rasmda ko'rinishicha, tadqiqotlar asosan Toshkent viloyati va Samarqand hududlarida jamlangan bo'lib, bu holat mazkur hududlarda ilmiy-metodik salohiyatning nisbatan yuqoriligi bilan izohlanadi. Farg'ona vodiysi viloyatlarida o'rta darajadagi faollik kuzatiladi, qolgan hududlarda esa tadqiqotlar soni nisbatan kam bo'lsa-da, shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni joriy etishga bo'lgan barqaror qiziqish mavjudligini ko'rsatadi.

O'qituvchilarning umumiy tajribasiga oid natijalar ham asosan ijobiy tendensiyalarni namoyon etdi ^[24]. Tahlil qilingan manbalarning yarmidan ko'prog'ida o'qituvchilar shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni qo'llash jarayonida kasbiy qoniqish darajasi oshganini bildirgan ^[2]. O'qituvchilar dars jarayonida o'quvchilarning faolligi ortgani, muloqot sifati yaxshilangani va sinf muhitining yanada ochiq hamda hamkorlikka yo'naltirilgan shaklga ega bo'lganini ta'kidlagan. Ayrim tadqiqotlarda o'qituvchilarning pedagogik qarashlari va kasbiy e'tiqodlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilib, o'quvchini bilim oluvchi emas, balki ta'lim jarayonining teng huquqli ishtirokchisi sifatida qabul qilish tendensiyasi kuchaygani aniqlangan ^[11, 15].

O'quvchilarning akademik rivojlanishiga doir obyektiv ko'rsatkichlar bilan bog'liq natijalar nisbatan cheklangan bo'lsa-da, ayrim muhim tendensiyalar aniqlangan. Tahlil qilingan manbalarning kichik qismida test natijalari, baholash ko'rsatkichlari va fan bo'yicha o'zlashtirish darajasining oshgani qayd etilgan. Bunday natijalar, asosan, shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni tizimli va izchil qo'llagan ta'lim muassasalarida kuzatilgan ^[22]. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotlarda akademik natijalardagi o'zgarishlar unchalik katta bo'lmagani yoki qisqa muddatda sezilmaganini ko'rsatadigan ma'lumotlar ham mavjud bo'lib, bu holat ta'lim samaradorligining ko'p omillarga bog'liqligini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar nokognitiv natijalar bo'yicha yanada barqaror va izchil ijobiy ko'rsatkichlarni namoyon etganini ko'rsatdi. Manbalarning katta qismida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi va mustaqil faoliyatga tayyorligi oshgani qayd etilgan. O'quvchilarning dars jarayonida faolroq bo'lishi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga moyilligi va o'z o'rganish jarayonini nazorat qilish ko'nikmalarining rivojlangani alohida ta'kidlangan ^[17].

Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni qo'llash natijasida o'qituvchi-o'quvchi va o'quvchi-o'quvchi munosabatlarida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgani aniqlangan. Tahlil qilingan manbalarning sezilarli qismida sinf ichidagi muloqot sifati yaxshilangani, ishonch va hamkorlikka asoslangan munosabatlar shakllangani qayd etilgan. Biroq ayrim manbalarda guruhli ishlarda nizolar yoki moslashuv muammolari qayd etilgan bo'lib, bunday holatlar ko'proq tashkiliy va metodik omillar bilan bog'liq ekani ko'rsatib o'tilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega. Tizimli tahlil asosida aniqlanishicha, ushbu strategiyalar o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligini oshirish, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish, hamkorlikda ishlash hamda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga barqaror ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, motivatsiya, o'ziga bo'lgan ishonch va o'quv jarayonidan qoniqish kabi nokognitiv ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli o'sish kuzatilgani ta'kidlanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalar o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini namoyon etdi. O'qituvchilar dars jarayonida o'quvchilar bilan hamkorlikka asoslangan munosabatlarni shakllantirish, rivojlantiruvchi baholash usullaridan foydalanish hamda sinf muhitini yanada ochiq va interaktiv tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lgan. Biroq akademik rivojlanishga oid obyektiv natijalar barcha tadqiqotlarda bir xil darajada namoyon bo'lmagan bo'lib, bu holat shaxsga yo'naltirilgan strategiyalarning samaradorligi ularni qo'llash sharoitlari va metodik ta'minotiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar asosida boshlang'ich ta'lim amaliyotida shaxsga yo'naltirilgan pedagogik strategiyalarni joriy etishda o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish hamda rivojlantiruvchi baholash usullarini keng qo'llash tavsiya etiladi. Shuningdek, kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu strategiyalarning uzoq muddatli ta'sirini aniqlash, ularning akademik natijalarga ta'sirini nazorat guruhlari asosida o'rganish hamda turli hududiy sharoitlarda qo'llash imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baturo, A., & Atweh, B. (2007). Teacher beliefs and learner-centred education. *Educational Studies in Mathematics*, 66(1), 49–63. <https://doi.org/10.1007/s10649-006-9033-4>
2. Biggs, J., & Tang, C. (2011). *Teaching for quality learning at university* (4th ed.). Maidenhead, England: Open University Press.
3. Black, P., & Wiliam, D. (1998). Assessment and classroom learning. *Assessment in Education: Principles, Policy & Practice*, 5(1), 7–74. <https://doi.org/10.1080/0969595980050102>



4. Bremner, N. (2022). The outcomes of learner-centred pedagogy: A systematic review. *International Journal of Educational Development*, 89, 102541. <https://doi.org/10.1016/j.ijedudev.2022.102541>
5. Cheng, Y. C. (2017). *New paradigm of learning and teaching*. Hong Kong: Springer.
6. Cox, J., & Berberoglu, G. (2014). Learner-centred approaches and student motivation. *Educational Psychology*, 34(5), 617–634. <https://doi.org/10.1080/01443410.2013.857010>
7. Darling-Hammond, L. (2008). *Powerful learning: What we know about teaching for understanding*. San Francisco, CA: Jossey-Bass.
8. Dewey, J. (1916). *Democracy and education*. New York, NY: Macmillan.
9. Fullan, M. (2014). *The new meaning of educational change* (4th ed.). New York, NY: Teachers College Press.
10. Hattie, J. (2009). *Visible learning: A synthesis of over 800 meta-analyses relating to achievement*. London, England: Routledge.
11. Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? *Educational Psychology Review*, 16(3), 235–266. <https://doi.org/10.1023/B:EDPR.0000034022.16470.f3>
12. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (2009). An educational psychology success story: Social interdependence theory and cooperative learning. *Educational Researcher*, 38(5), 365–379. <https://doi.org/10.3102/0013189X09339057>
13. Lattimer, H., & Kelly, K. (2013). Engaging students through inquiry-oriented learning. *Journal of Curriculum Studies*, 45(4), 512–534. <https://doi.org/10.1080/00220272.2013.790480>
14. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2005). *The definition and selection of key competencies (DeSeCo)*. Paris, France: OECD.
15. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2013). *Innovative learning environments*. Paris, France: OECD.
16. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2018). *The future of education and skills: Education 2030*. Paris, France: OECD.
17. Piaget, J. (1972). *The psychology of the child*. New York, NY: Basic Books.
18. Prince, M. (2004). Does active learning work? A review of the research. *Journal of Engineering Education*, 93(3), 223–231. <https://doi.org/10.1002/j.2168-9830.2004.tb00809.x>
19. Sahlberg, P. (2011). *Finnish lessons: What can the world learn from educational change in Finland?* New York, NY: Teachers College Press.
20. Slavin, R. E. (2015). *Cooperative learning: Theory, research, and practice* (2nd ed.). Boston, MA: Allyn & Bacon.
21. Tomlinson, C. A. (2014). *The differentiated classroom: Responding to the needs of all learners* (2nd ed.). Alexandria, VA: ASCD.
22. UNESCO. (2019). *Assessment of transversal competencies: Current tools and practices*. Paris, France: UNESCO.
23. UNESCO. (2021). *Reimagining our futures together: A new social contract for education*. Paris, France: UNESCO.
24. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
25. Zimmerman, B. J. (2002). Becoming a self-regulated learner: An overview. *Educational Psychologist*, 37(2), 64–70. https://doi.org/10.1207/S15326985EP3702_2

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.